

FAXRUDDIN ALI SAFIYNING HAYOT YO'LI

Qamariddinova Gulrux Akmal qizi- Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası o’qituvchi
gulruxqamariddinova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasavvufiy ta’limotlar tadqiqotchisi, Movarounnahr va Xurosonda XV-XVI asrlarda yashab ijod etgan yirik diniy-ma’naviy siymolardan biri bo’lmish Faxruddin Ali Safiyning falsafiy-ilmiy merosi hamda hayot yo’li haqida fikr yuritiladi. Ushbu davrda ko’zga ko’ringan olimlarning o’z asarlarida ushbu shaxsga bergan ta’riflari va munosabatlarining ahamiyati maqolada ochib berilgan.

Kalit so’z va iboralar: Tasavvuf, rashha, tariqat, pir, muridlik, Safiy, Ziyo, voiz, xojagon-naqshbandiylik, irfon, dardmand sheva, foniý sifat, mutaffakir, valad, xoxarzoda

ЖИЗНЕННЫЙ ПУТЬ ФАХРУДДИНА АЛИ САФИ

Камариддинова Гулрух Акмаль гызы – преподаватель кафедры
«Общественные науки» Бухарского инженерно-технологического
института

gulruxqamariddinova@gmail.com

Аннотация: В данной статье размышляется философско-научное наследие и жизненный путь Фахруddина Али Сафи, исследователя суфийского учения, одного из великих религиозных и духовных деятелей, жившего в Movarounnahr и Xorasane в XV-XVI веках. В статье раскрывается значение определений и отношений, данных этому человеку видными учеными этого периода в своих трудах.

Ключевые слова и фразы: Суфизм, раша, тарикат, пир, мюридлик, Сафи, Зия, проповедник, Ходжагон-Накшбандиил, Ирфан, Дардманд Шева, Фани Сифат, Мутафакир, Валад, Хохарзаде.

THE LIFE PATH OF FAKHRUDDIN ALI SAFI

Qamariddinova Gulrux Akmal gyzi - teacher of the department of "Social Sciences" of the Bukhara Institute of Engineering and Technology
gulruxqamariddinova@gmail.com

Abstract: This article reflects on the philosophical-scientific heritage and life path of Fakhruddin Ali Safi, a researcher of Sufi teachings, one of the great religious and spiritual figures who lived in Movarounnahr and Khorasan in the 15th-16th centuries. The article reveals the significance of the definitions and relationships given to this person by prominent scientists of this period in their works.

Key words and phrases: Sufism, rashha, tariqat, pir, muridlik, Safi, Zia, preacher, Khojagon-Naqshbandiyil, irfan, Dardmand Sheva, Fany Sifat, Mutafakir, Walad, Khokharzade

Kirish

Tasavvuf, bir tomondan, din va shariat, ikkinchi tomonidan, falsafa va hikmat ilmi bilan bog'liq bo'lgan holda rivojlanib kelgan o'ziga xos ta'limotdir. asrlardan beri ilm-ma'rifat markazi bo'lib kelayotgan O'rta Osiyo, xususan, mamlakatimiz bugungi kungacha bir necha renessans davrlarini boshidan o'tkazdi. Dunyo xalqlarini bugungacha hayron qoldirib kelayotgan, ilmiy, ma'naviy, diniy - tasavvufiy, badiiy yo'nalishlarda yashab ijod etgan allomalarni bizga yetkazib bergan davr bu - shubhasiz Temuriylar davri bo'lib hisoblanadi. Mustaqillik davridan so'ng juda ko'plab eshiklar ochildi. Ayniqsa ma'naviyatimizning tub asoslari bo'lmish olimlarning hayotini o'rganish, ilmiy merosini tarjima qilish, axloqiy-falsafiy qarashlarini va faoliyatini yanada chuqurroq o'rganish imkoniga ega bo'ldik. Naqshbandiya tariqati pirlari bo'lmish Xo'ja Ahror Valiy va u kishining izdoshlari Faxruddin Ali Safiy kabi irfoniy bilimlar egasi bo'lgan olimlarning hayot yo'lini o'rganish lozimligini bugungi kunda naqadar muhim ekanligini ko'ryapmiz. Faxruddin Ali Safiyning ilmiy merosini o'rganish ijtimoiy fanlar, jumladan falsafa va uning tarixini chuqurroq o'rganishga yo'l ochib beradi. Yangilanayotgan O'zbekistonda so'nggi yillarda o'zbek xalqining boy tarixi va madaniyatini birlamchi manbalar asosida tadqiq etish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida ma'naviyat masalasiga alohida urg'u berganlar: "Bugun ma'naviyat boshqa sohalaridan o'n qadam oldinda yurishi, ma'naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak". Shu boisdan ham jumladan, tasavvuf olimlarining hayot yo'llarini o'rganish, tariqat vakillarining asarlarini bilish biz uchun ayni kerakli mavzulardan biriga aylanib ulgurdi.

Asosiy qism

Faxruddin Aliy Safiyning hayotini va ilmiy merosini o'rganishda avvalo, o'zining asarlari qimmatli manba bo'lib hisoblanadi. "Rashahotu aynil-hayot", "Odob ul-ashob", "Latoif ut-tavoyif" kabi asarlari olimlar tomonidan tahlil etilgandan so'ng nafaqat ushbu shaxs haqida balki o'sha davrning ijtimoiy, ma'naviy hayoti to'g'risida ham ma'lumotlarga ega bo'lindi. Qolaversa, Alisher Navoiy, Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" kabi asarlarda ham tilga olingan. Tojikistonlik va o'zbekistonlik olimlar H.Saidov, Sh. Nuriddinov, M.Ahmadovlar nashr etgan "Durdonahoi nasr (Namunahoi nasri foris-tojik)" uchinchi jildi, Mahmud Hasan Mahdumzoda tabdili va nashri, Hoji Sotimxon Xoja Munavvar I'nom tabdili va nashri, shuningdek, Moskvada amalga oshirilgan bir necha ruscha tarjima va nashrlar esa asosan "Latoif ut-tavoyif"ning hozirgi o'zbek, tojik va rus tillarida tarjima qilish, keng xalq ommasiga yetkazish va targ'ib qilishga mo'ljallangan ilmiy-ommabop nashrlar edi. M.Hasaniy va B.Umrzoq tomonidan amalga oshirilgan Ali Safiy "Rashahot ayn-ulhayot"ning birinchi tabdili

va nihoyat, mazkur olimlar tomonidan amalga oshirilgan eng to'liq, mukammal o'zbekcha tarjimasi, tadqiqoti, izohlari, nashri ham bu yo'nalishda katta ish bo'ldi deyish mumkin. Ali Safiy yashab ijod etgan davrda Movarounnahr va Xurosonda nihoyatda murakkab vaziyatlar mavjud edi. Xususan:

- Bir asrdan ortiq hukmronlik qilgan sulola o'zaro ichki kurashlar va tashqi kuchlar bosimi ostida qolayotgan edi. Bu shubhasiz Amir Temur tashkil etgan va temuriylar davrida gullab-yashnagan ilmiy hayotga salbiy ta'sir ko'rsatayotgandi.

- Yana bir asosiy sabablardan biri temuriylar sulolasi vakillari hamda Dashti vakillari hamda xalqi sunniylik yo'nalishiga e'tiqod qilardi. Biroq, Zahiriddin Muhammad Boburning Movarounnahr taxtini qaytarib olishida "yordam" qo'lini cho'zayotgan Safaviylar davlati aslida, kuchli raqobatchisi Muhammad Shayboniixon tuzayotgan davlatni tugatmoqchi edi. O'zi boshchiligida katta qo'shin bilan Movarounnahr chegaralarigacha yetib keladi. Diniy tomondan ular shia e'tiqodida edilar. Bu esa xalqning va kuch-qudratga ega bo'lgan diniy ulamolarning kuchli qarama-qarshiligiga sabab bo'ladi.

- Movarounnahr hududida Shayboniylarning, Xuroson hududlarida Safaviylarning, Shimoliy Hindistonda Boburiylarning hukmronligi qat'iy o'rnatildi. Uch buyuk davlatlarning siyosiy, ijtimoiy aloqalari bog'lanib, harbiy-strategik tomondan qo'shnichilik davom etayotgan bo'lsa-da, aslida Osiyo mintaqasida diniy-mafkuraviy va harbiy jihatdan jarayonlar keskinligicha qolmoqda edi.

Bir masalaga e'tibor qaratmoq kerakki, Ali Safiy va uning zamondoshlari, tengdoshlari Temuriylar sulolasi davrida tug'ilib, ilm-fanga o'z hissasini qo'shayotgan edi. Jumladan, Fazlulloh ibn Ro'zbehon, Kamoliddin Binoiy, Zayniddin Vosifiy kabi ilm ahillari Samarqand, Buxoro shaharlarida ta'lim olishgan. Xoja Ahror Valiy kabi pirlar qo'lida naqshbandlik tariqati bo'yicha ham aynan o'sha yillarda Ali Safiy saboqlar oladi. Endi tahlil qiladigan bo'lsak, Temuriylar sulolasi hukmdorlariga sodiqligi sababidan Ali Safiy kabi olimlar Shayboniyxonga va uning avlodlariga unchalik ham ishonchli shaxs bo'lmaydi. Biroq xalq orasida o'zining nufuzi bilan, diniy masalalarda fatvo bera olish kabi darajasi bilan Ali Safiyni shunchaki yo'qotib bo'lmas edi. Ayni damda Safaviylar hukmronligi davom etayotgan hududlarda ham Ali Safiy uchun ijod qilish xavfsiz deb bo'lmasdi. Chunki shia-sunniylik nizolari doim mavjud edi. Shunday qilib Ali Safiy XVI asrning 20-30-yillarida ana shunday siymo edi. Ya'ni ilmiy darajasi uchun, xalq orasidagi obro'si uchun har bir hukmdor hisoblashishi shart bo'lgan, biroq, temuriylarning sodiq insonlaridan bo'lgani uchun ishinch bildirib bo'lmaydigan – noqulay shaxs bo'lgan deyiladi. Mazkur allomaning hayoti va ilmiy merosi O'zbekistonda falsafa tarixi sohasida I.Mo'minov, H.Aliqulov,

R.Mahmudov, filolog, adabiyotshunos olimlar O.Usmonov, N.Komilov va boshqalar tomonidan o'rganilgan va o'rganilmoqda.

To'liq ismi Faxruddin Ali Safiy ibn Kamoluddin Husayn al-Voiz al-Koshifiy 1463-yil 11-fevralda Sabzavorda tug'ildi, so'ng ota-onasi bilan Hirotga ko'chib keladi. Buni Xoja Ahror bilan o'rtasida bo'lib o'tgan savol-javobdan buni bilib olish mumkin. "Birinch marta Samarqandga kelib, ul Hazrat bilan uchrashish sharafiga muyassar bo'lganimda: "Qayerdan bo'lasan?" deb so'radilar. Me: "Tug'ilgan yerim Sabzavor, ammo Hirida nash'u namo topibdurman" deb javob berdim deb yozadi Ali Safiy.

Ali Safiyning ushbu tasavvuf dengiziga sho'ng'ishiga, ilm olishiga otasi poydevor yaratib bergan, jumladan, dastlabki bilimlarni otasidan olgan. Husayn Voiz Koshifiy Xuroson zaminining ham diniy ham dunyoviy mashhur olimlaridan bo'lgan. Temuriy Husayn Boyqaro zamonida eng hurmatli davlat arbobi hamda voiz bo'lgan. Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", "Tafsiri Husayniy" kabi asarlari bugungi kungacha o'z qadr-qimmatini yo'qotmagan.

Ali Safiyning Xo'ja Ahror Valiyga muridlikka tushishi va uning izidan yurishiga yana bir asosiy shaxslardan biri Jomiydir. Gulchin Maoniy va M.Ahmadovlarning bergan ma'lumotlariga qaraganda, Ali Safiy hamda Jomiy "hoharzoda" ya'ni xolavachcha bo'lishgan. Ali Safiy ushbu maydonga qadam qo'yganda dastlab o'ziga "Ziyo" taxallusini tanlaydi. Jomiy esa ushbu taxallusni uning o'g'liga berishni va o'ziga "Safiy" taxallusini tanlashni aytadi. Bu paytda Safiy 11-12 yoshda bo'lgan. Juda yoshligidan ilm-irfonga chanqoqligi sabab, Jomiy har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. XVI asrning dastlabki yillarida Movarounnahrda siyosiy vaziyat og'ir edi. Shuning uchun ham yosh olimlar tinchlik istab turli shaharlarga yo'l oladi. Ayni shu yillarda Safiy ham Ahror Valiyning huzuriga yo'l oladi. Siyosiy kurashlar albatta Safiy ham chetlab o'tmaydi. Shayboniy Ubaydullaxon zamonida 1 yil zindonda bo'lgani va G'arjistonga badarg'a qilingan edi deb ma'lumot beradi SH.Nuriddinov o'z asarlarida.

Shaxsiy hayotida oilasi to'g'risida ma'lumotlar deyarli uchramaydi. Navoiyning asarlarida "dardmand sheva" deb tilga olinadi. Ya'nikim ilmga dildan berilgani sabab farzandsiz bo'lgan bo'lishi mumkin. Ali Safiyning vafoti to'g'risida ham ba'zi fikrlar mavjud. Ali Safiy 1532-yil Hirot tashqarisida vafot qilgan va Hirot shahri ichiga keltirilib dafn qilingan. Asosiy manba va tadqiqotlarda umrining oxirini Hirotda o'tkazganligi qayd etilsa-da, Nisoriy o'zining "Muzakkiri ahhob" tazkirasida "deydilarki, Ubah taraflarda madfun emish, aniq bilmadik, Tangrining o'ziga a'ypn. Alloh bilguvchiroqdir" - tarzidagi ma'lumot yozib qoldirgan.

Zamondoshlarining yozib qoldirgan fikrlari hamda bugungi kunda olimlarning izlanishlari natijasida Faxruddin Ali Safiy yashagan hayot yo'llarini bosqichlarga bo'lish mumkin degan xulosaga kelamiz. Umid Mavlyanovning tadqiqotlariga ko'ra, Ali Safiyning hayot yo'llarini 6 davrga bo'lish mumkin.

I davr – Sabzavorda tug'ilib Hirotga ko'chib kelishlarigacha bo'lgan bolalik davri hisoblanadi. Ushbu davr bolalik va o'smirlik davriga to'g'ri keladi, dastlabki ta'limni otasi Koshifiydan olgan hamda madrasadan olgan edi. 1463-1474-yillarni o'z ichiga olgan ushbu qisqa davr Safiy hayotining tamal toshi bo'lib hisoblanadi.

II davr – 1474-yildan toki Xoja Ahror Valiy vafotiga qadar bo'lgan davr. Aynan shu davrda Safiy Jomiy hamda otasi orqali ilm davralariga kirib boradi. "Safiy" taxallusini oladi. Ahror Valiy tarbiyasi ostida kotiblik, muridlikdan naqshbandiya tariqati targ'ibotchisi darajasigacha boradi.

III – davrda esa Sulton Husayn Boyqaro taklifiga ko'ra Hirotga kelib ijod qila boshlaydi va mamlakatning bosh voizi lavozimida xizmat qiladi,

IV – davr 1507-1514-yillarni o'z ichiga olgan bo'lib, siyosiy maydondagi kurashlar avj olgan palla edi. Safiy uchun ham tazyiqlar avj olmoqda edi. Biroq yetarli kuchga ega bo'lgan Safiyga hech kim jur'at eta olmagan. Mudarrislik lavozimida faoliyat yuritgan.

V davr – keying o'n yillik uzlatda o'tkazilgan deb taxmin qilinadi. Barcha hukmron sulola vakillaridan uzoqroqda ilm bilan shug'ullangan

VI – davr nohoyatda to'fonli yillar bo'lgan. Dushmanlari tomonidan ta'qibga uchragan hamda zindonda saqlangan. Shayboniy Ubaydullaxon tomonidan G'urjistonga badarg'a qilingan. Lekin u yerda hurmatda yashagan va qator asarlarini yozib qoldirgan. O'zining "Latoif-ut-tavoif" asarini aynan G'urjistonda yashagan davri oxirlarida – 1532-1533-yillarda yozib bitirdi. 1533-yilda Ubahda vafot etdi, keyinchalik qabri Hirotga ko'chirildi.

Faxruddin Ali Safiy yigitlik chog'idayoq zamonasining olimlari nazariga tushadi. Jumladan, Alisher Navoiy bu yigitning she'riyatda ham "ta'bi xub" ekanligini zikr etadi va quyidagi mat'lani dalil sifatida keltiradi:

Bo labi la'lu xati g'oliyagun omadiy

Ajab orasta az xoba burun omadiy

Ya'ni:

La'li labu gul ila qomat kelding

Uydan chiqibon zebu jahon qad ila kelding

Tasavvuf yo'nalishi ilm dengizining keng ummonlaridan hisoblanadi. Jumladan, maqolamizning tub mazmunida naqshbandiylik tariqati o'rin olgan. Islom olamida juda katta obro'-e'tiboriga ega bo'lgan Naqshbandning hayoti manobqlarga to'la bo'lib, bugungacha uning hayoti va tariqatini ifodolovchi juda ko'plab asarlar bitilgan. Shulardan, Faxruddin Ali ibn Husayn Voiz Koshifiyning

“Rashahot ayn al-hayot” risolasi Naqshbandiya tariqati shayxlari haqida keng ma’lumot beradi.

Xulosa

Qanchadan qancha mashaqqatlarni boshidan o’tkazgan bo’lsa-da, Ali Safiy o’zidan sezilarli iz qoldirdi. O’zining yirik asarlari bugungi kunda qimmatli manbalardan bo’lib hisoblanadi. Jumladan “Rashahotu aynil hayot” (Obi hayot tomchilari), “Latoif ut-tavoif”, “Tuhfat ul xoniy”, “Odob ul-ashob” (Do’stlar odobi) kabi ko’plab asarlari o’quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish uchun qolaversa, tasavvufiy-mafkuraviy, falsafiy ilmlarni chuqurroq o’rganish uchun boy manbalardir. Ali Safiyning hayot yo’li, ilmiy faoliyati qolaversa, tarixiy-falsafiy, tasavvufiy merosi va qarashlarini ko’plab xorijlik olimlar o’ranishgan. Shulardan eronlik sharqshunos olim Ahmad Gulchin Maoniydir. Mustaqillik yillaridan so’ng Xo’ja Ahror Valiy shaxsiyatini o’rganishga keng imkoniyatlarni ochilgani shubhasiz, shogirdlarining ham ilmiy faoliyatini o’rganishga imkon yaratdi. Mahmud Hasaniy va Baxriddin Umrzoqov tomonidan “Rashahotu aynil-hayot” (Obihayot tomchilari) asarining tarjima qilinganligi va nashrga tayyorlanganligi ulkan xizmatlaridan biri bo’ldi. Ushbu asar tarix, adabiyot, falsafa tarixi, tasavvuf hamda O’rta Osiyo madaniyati tarixi bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar ommasiga mo’ljallangan. Kitob XIX asrda Domla Xudoybergan ibn Bekmuhammad tomonidan Xorazmda eski o’zbek tiliga tarjima qilingan. Ali Safiy Qur’oni Karimning harflari, sura va oyatlarining shifobaxshligi va Hadisi shariflar haqida ham asari mavjuddir – “Hirzul-amon min fitanil-zamon”. Ushbu asar ham olimlar tomonidan o’rganilmoqda. Xulosa o’rnida aytish joizki, Faxruddin Ali Safiy o’zbek Renessans davriga hissa qo’shgan zabardast shaxslardan biri bo’lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak. Respublika Ma’naviya Ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisdagi nutqi. 2023 y, 22-dekabr.
2. Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil-hayot. – T.: Abu Ali Ibn Sino, 2004.
3. Umid Mavlyanov. Faxruddin Ali Safiy. – T.: Mumtoz so’z, 2016.
4. Faxriddin Ali Safiy. Latofatnoma. – T.: Ga’fur G’ulom nomidagi adabiyot san’at nashriyoti, 1996.
5. Alisher Navoiy. Majoluis-un nafa’is. – T.:1997.
6. Akmal Saloxov. Falsafa. – T.: Lesson press, 2021.
7. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. – T.: “Movarounnahr”-“O’zbekiston”, 2009.